



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 485 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhiddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjievna Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari.....	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	



На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран.....	435
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari.....	443
Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг.....	448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili	454
Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli	
Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish.....	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Qishloq xoʻjaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari	463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy oʻgʻli	
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan	468
Sattarov R.A.	
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region.....	476
Daminova Barno Esanovna	
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli	480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	



MODDIY ZAXIRALARNI BOSHQARISH VA UNING BIR TSIKLI MODELI

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

E-mail: baxtiyordedajanov@gmail.com

ORCID: [0009-0001-8636-1717](https://orcid.org/0009-0001-8636-1717)

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda moddiy zaxiralarni boshqarish va ular bilan bog'liq harakatlarni muvofiqlashtirishning dolzarbligi yoritib berilgan. Shuningdek, sohaga oid olimlarning moddiy zaxiralar va ularni boshqarish masalasiga nisbatan yondashuvlari tahlil qilingan. Korxonada mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabning o'zgarish xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Moddiy zaxiralarni boshqarishning bir tsikli modeli va uning asosiy xususiyatlari tavsiflangan. Mazkur yo'nalish doirasida yuzaga keladigan ayrim muammolar tahlil etilgan va moddiy zaxiralarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: moddiy resurslar, me'yorlash, omborlar, tayyor mahsulotlar, tasodifiy xaridlar, tovar-moddiy zaxiralarni saqlash xarajatlari, tovar-moddiy zaxiralarni to'plash, bir tsikli model, mahsulot birligi, asosiy buyurtmachilar, mijozlar ehtiyoji.

Abstract: This article highlights the relevance of managing material inventories at enterprises and coordinating related operations. It also analyzes the approaches of scholars to the management of material resources. The article describes the characteristics of changes in demand for company products and services. A one-cycle model of inventory management and its key features are explained. Furthermore, several issues arising in this area are examined, and relevant recommendations are provided to improve the efficiency of inventory management.

Key words: material resources, standardization, warehouses, finished products, random purchasing, inventory storage costs, accumulation of inventories, one-cycle model, product unit, main customers, client needs.

Аннотация: В статье рассматривается актуальность управления материальными запасами на предприятиях и координация связанных с ними операций. Также проанализированы подходы ученых к вопросам управления материальными ресурсами. Освещены особенности изменения спроса на продукцию и услуги предприятий. Описана одноконтурная модель управления материальными запасами и её ключевые характеристики. В рамках темы выделены отдельные проблемы и представлены рекомендации по повышению эффективности управления материально-техническими ресурсами.

Ключевые слова: материальные ресурсы, нормирование, склады, готовая продукция, случайные закупки, издержки хранения товарно-материальных запасов, накопление товарно-материальных ценностей, одноконтурная модель, единица продукции, основные заказчики, потребности клиентов.

KIRISH

Bozor munosabatlarining har qanday ishtirokchisi o'z ehtiyojlarini moddiy resurslar yordamida qondiradi. Moddiy resurslar — bu korxonada mulkning bir qismi bo'lib, ular balansda aks ettirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsiyalar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va boshqa aktivlar qatorida turadi. Ular moddiy asosi, tarkibi va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida qo'llanilish xususiyatlari bilan ajralib turadi.



Qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarda moddiy resurslar, korxonalar aktivlarining boshqa turlaridan farqli o'laroq, me'yorlashtiriladi. Bu esa zaxiralarni boshqarish tizimining zaruriy sharti hisoblanadi. Moddiy resurslarni me'yorlashtirish — ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz va samarali borishi uchun zarur bo'lgan minimal, ammo yetarli darajadagi moddiy resurslar miqdorini aniqlash jarayonidir. Bu iqtisodiy asoslangan rejalashtirilgan resurs me'yorlari va standartlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni shakllantirish ko'pincha qarz mablag'lari hisobidan katta investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli ular korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantiruvchi va, umuman, ishlab chiqarish xizmatlari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sanaladi. Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadiki, korxonadagi moddiy resurslar alohida e'tibor va samarali boshqaruvni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarishning asosiy maqsadi — foyda olish va uni oshirishdan iborat bo'lib, bu xo'jalik yurituvchi subyektning resurs bazasidan samarali foydalanish orqali ta'minlanadi. Uzluksiz ishlab chiqarishning asosiy komponenti moddiy resurslar hisoblanadi va ulardan oqilona foydalanish korxonaning iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Olimlar va mutaxassislar tomonidan moddiy resurslar tushunchasini talqin etishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'pincha ishlab chiqarish resurslari (ishlab chiqarish zahiralari) — IR (IZ) — moddiy resurslar (moddiy zaxiralar) — MR (MZ) bilan ifodalanadi¹.

Resurslar va moddiy resurslar tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari, shuningdek, moddiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tejash masalalari qator xorijiy va MDH olimlari — K.R. Makkonnell, S.L. Bryu, Sh.M. Flinn, I.V. Sergeev, N.L. Zaytsev, Yu.A. Babayev, V.V. Volgin, N.A. Lytneva, L.I. Malyavkina, T.V. Fedorova, N.I. Bazylev, M.N. Bazyleva tomonidan keng o'rganilgan.

Mahalliy olimlarimiz — A.V. Vahobov, A. Ortiqov, M.Q. Pardayev, Sh.A. Tojiboyeva, I.T. Abduraimov, A.A. Abdiyev, V.V. Ergashboyev, E.A. Akramov²larning ilmiy tadqiqotlarida esa moddiy resurslarning mazmun-mohiyati, ularni guruhlash, baholash, boshqarish va tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida olimlarning moddiy resurslar va tovar-moddiy zaxiralarga oid yondashuvlari o'rganildi. Jarayonning asosiy xususiyatlari va muammolari aniqlanib, tegishli xulosalar shakllantirildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida kuzatish, tahlil, sintez va umumlashtirish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'pincha, ishlab chiqarish jarayoni yakunlangandan so'ng, korxonalar tayyor mahsulotlarni o'z omborlarida saqlaydilar. Ushbu zaxiralarning yetarli miqdorda mavjud bo'lishi mahsulotlarni zarur paytda iste'molchilarga tez yetkazib berishning ishonchli manbai hisoblanadi. Mustaqil talab asosida mahsulot zaxiralarni samarali boshqarish ortiqcha tovarlarni saqlashning oldini olishga yordam beradi. Natijada ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlar minimallashtiriladi va mahsulotlarni maqbul narxlarda iste'molchilarga yetkazib berish darajasi oshadi.

Moddiy zaxiralarni boshqarishning ikkita asosiy modeli mavjud: bir davrli va ko'p davrli. Ushbu modellarni qo'llashdagi farqlar moddiy resurslarni xarid qilish usullariga bog'liqdir. Qayta sotib olinmaydigan va ma'lum muddat davomida foydalanilishi kerak bo'lgan mahsulotlarni "tasodifiy" xarid qilishda bir davrli model qo'llaniladi. Vaqti-vaqti bilan xarid qilinadigan mahsulotlar uchun, ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiq zaxiralar shakllantirilgan taqdirda, ko'p davrli modeldan foydalaniladi. Ko'p davrli model ikki asosiy turga bo'linadi: belgilangan buyurtma hajmi va zaxiralarni belgilangan vaqt oralig'ida to'ldirish modeli.

Birinchi holatda, har safar tovar-moddiy zaxiralarni to'ldirish zarurati yuzaga kelganda, korxonalar rahbariyati tashqi manbalardan sotib olinadigan yoki korxonaning o'zida ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini

1 Makkonnell K.P., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд. — М.: Инфра-М, 2019. — 1152 с. — ISBN 978-5-16-012985-3. Лытнева Н.А., Малайкина Л.И., Федорова Т.В. Бухгалтерский учет. - 2-е изд. М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2013. 512 с. Базылев Н.И., Базылева М.Н. Экономическая теория. Минск: Современная школа, 2008. 640 с.

2 Акромов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. — Т.: Молия, 2003.-223 б. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2003.А.Ортиқов. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). — Т.: ТДИУ, 2009, 320-б. Иброҳимов А. Т. Ваҳобов А. В. Молиявий таҳлил— «Шарқ» нашриёт, Т.:2002. — 224 б. И.Т. Абдукаримов, М.Қ. Пардаев, А.А. Абдиев, В.А. Абдукаримов. Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш.-Т.: Ўқитувчи. 1989 й. И.О.Волжин, В.В. Эргашбоев. Молиявий таҳлил.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998. М.Қ.Пардаев, А.Х.Шоалимов.Бошқарув таҳлили.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2005. А.Х.Шоалимов, Ш.А.Тожибоева. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Ўқув қўлланма. —Т.: ТДИУ, 2011.



aniqlaydi. Ushbu boshqaruv tizimidan foydalanganda, zaxiralar xususiyatlari asosida ularning minimal xarajatlar bilan to'ldirilishi hisoblab chiqiladi. Bunday yondashuv "buyurtmaning iqtisodiy hajmi" (EOQ – Economic Order Quantity) deb ataladi. Moddiy zaxiralarni boshqarishning samarali tizimi buyurtma qilinadigan mahsulotlarning ratsional hajmini belgilash, shuningdek, zaxiralarni to'ldirish zarurati — ya'ni qayta buyurtma darajasi yoki qayta buyurtma nuqtasini aniqlash imkonini beradi.

"Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash xarajatlari" tushunchasi tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, to'plash, saqlash, ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu xarajatlarni hisobga olish uchun turli yondashuvlar mavjud: ularni qo'shimcha xarajatlar sifatida ajratishdan tortib, maqsadli xarajatlarga taqsimlashgacha. Biroq, ayrim yashirin xarajatlar zaxiralar mavjud bo'lmagan taqdirda ham yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, tovar-moddiy zaxiralarni shakllantirish jarayonida ularni to'plash natijasida qiymatning ortish ehtimoli va kamayish sabablari har doim inobatga olinishi lozim.

Biroq, tovar-moddiy zaxiralarni to'plash nafaqat xarajatlarning ortishiga, balki ularning kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, korxonada mahsulotning bir qismini ishlab chiqarishga buyurtma berish uchun ta'minotchilarga murojaat qilishga majbur bo'lganda, ta'minotchini topish, u bilan aloqa o'rnatish, uning faoliyatini baholash, yuklarni yetkazib berish, ularni qadoqlashdan chiqarish va omborlarga joylashtirish kabi jarayonlarda qo'shimcha xarajatlar yuzaga keladi. Albatta, zamonaviy ishbilarmonlik aloqalari ayrim xarajatlarni ta'minotchilarga yuklash imkonini beradi, biroq har qanday holatda ham bu omil yakuniy mahsulot narxining oshishiga sabab bo'ladi. Shu bois, oldindan ko'p miqdorda xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi yuqoridagi xarajatlarni kamaytirish hamda mahsulot narxini optimallashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, korxonada yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish jarayonini qayta sozlaganida, ishga tushirish bilan bog'liq xarajatlar yuzaga keladi. Bunday xarajatlar uskunalarning vaqtincha to'xtashi, ishga tushirish davrida mehnatga haq to'lash va materiallar xarajatlari bilan bevosita bog'liqdir. Ilgari bunday xarajatlarni cheklash maqsadida oldindan belgilangan me'yorlardan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi kunda "o'z vaqtida" (Just-in-time) yondashuvi tobora kengroq qo'llanilmoqda. Bu yondashuv kichik partiyalarda ishlab chiqarishni, arzonroq ishga tushirish operatsiyalarini amalga oshirishni va ishlab chiqarish jarayonini moslashuvchan boshqarishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ortiqcha zaxiralarni saqlash o'rniga saqlash xarajatlarini kamaytirish bugungi sanoat korxonalarining muhim maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonda moslashuvchan avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanish orqali bir xil uskuna yordamida bir nechta turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi, bu esa qayta sozlash xarajatlarini kamaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Xarid qilinadigan mahsulot partiyalarining hajmini oshirish ularning tannarxini pasaytirish hamda iqtisodiy tejamkorlikka erishish imkonini beradi. Zaxiralarning mavjudligi esa kutilmagan talablarni qondirish, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor javob berish, mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish va buyurtmalarni bajarish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Zaxiralarni boshqarishda bir tsikli modeldan ham foydalaniladi. Ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, model korxonada mahsulotlariga talab yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli vaqt oralig'iga asoslanadi; ikkinchidan, model mavjud zaxiralarni darhol to'ldirish imkoniyatini nazarda tutmaydi; uchinchidan, mahsulotlar oldindan xarid qilinishi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, yashirin xarajatlar korxonaning potentsial daromadiga to'g'ri mutanosib bo'ladi; ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar birligiga sarflangan xarajatlar esa ularning xarid qiymati va realizatsiya (yoki tugatish) qiymati o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi. Tovar-moddiy zaxiralarni ortiqcha miqdorda xarid qilish ularni saqlash bilan bog'liq xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi, chunki ayrim mahsulotlar hech qachon talab qilinmasligi ehtimoli mavjud.

Buyurtmaning hajmi yetishmayotgan mahsulotlar sababli yuzaga kelgan yo'qotilgan foyda qiymati bilan ortiqcha zaxiralarni saqlash xarajatlari o'rtasidagi farqni hisoblash orqali aniqlanadi.

Faraz qilaylik, $P(D)$ — buyurtmaga kiritilgan oxirgi mahsulot birligi (n) sotilish ehtimoli bo'lsin. Ortiqcha zaxira birligi uchun xarajatlar C_0 (yoki $[1 - P(D)] \cdot C_0$) ga teng bo'ladi. U holda, yetishmayotgan mahsulotlar bilan bog'liq kutilayotgan xarajatlar $P(D) \cdot S_u$ ifodasi bilan belgilanadi, bu yerda S_u — bitta sotilmay qolgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan yo'qotilgan foyda qiymatini anglatadi.

Mazkur qiymatlar o'rtasidagi farq tugamaguncha, ya'ni ortiqcha zaxira xarajatlari bilan yetishmovchilikdan kelib chiqadigan yo'qotishlar tenglashmaguncha, qo'shimcha mahsulot birliklarini xarid qilish zarur bo'ladi:

$$P(D) \times C_u > [1 - P(D)] \times C_0. \quad (1)$$

Buyurtmaga kiritilgan oxirgi mahsulot birligi uchun $P(D)$ ehtimollik qiymati, buyurtma hajmi minimal talab darajasiga yaqinlashgan sari kamayadi. Shunday qilib, buyurtmaning optimal hajmi mahsulotlarni qo'shimcha xarid qilish va mavjud mahsulotlarni saqlash uchun kutilayotgan xarajatlar o'zaro ekvivalent bo'ladigan darajaga to'g'ri keladi.



Bu nuqtada, mahsulotlarni saqlash xarajatlari va sotilmay qolgan mahsulotlar tufayli yo'qotilgan foyda qiymatining tenglashuvi kuzatiladi. Shunga asosan, kutilayotgan xarajatlar qiymatini $P(D)^*$ ga tenglashtiradigan kritik ehtimollik aniqlanadi.

$$P(D)^* \times C_u > [1 - P(D)^*] \times C_o \quad (2)$$

$$P(D)^* \times C_i = C_o - C_o P(D)^* \quad (3)$$

$$P(D)^* \times (C_u + C_o) = C_o \quad (4)$$

$$P(D)^* = C_o / C_{u+o} \quad (5)$$

Yuqorida keltirilgan formuladan kelib chiqib, buyurtma hajmi oxirgi mahsulot birligini sotish ehtimoli kritik ehtimollik qiymatiga mos kelguncha yoki undan oshguncha ortib boradi. Bunday yondashuvni ifodalovchi bir tsiklik modelga misol sifatida "ko'cha sotuvchisi muammosi"ni keltirish mumkin. Bu modelda sotuvchi har kuni ertasi kuni sotilishi mumkin bo'lgan gazetalar sonini aniqlashi kerak bo'ladi, chunki matbuot mahsulotlari tezda eskiradi va bir kundan keyin ularning qiymati yo'qoladi. Natijada, sotib olish xarajatlari belgilangan sotuv bahosi bilan qoplanmaydi.

Mazkur modelga yana bir amaliy misol sifatida moda sanoati mahsulotlarini, jumladan kiyim-kechak va shunga o'xshash mahsulotlarni sotish holatini ko'rsatish mumkin. Moda mahsulotlari ham tezda qadrsizlanib, omborda uzoq muddat saqlanishi natijasida ularning sotuvdan olinadigan foydasi pasayadi.

Shu bilan birga, ayrim hollarda tovar-moddiy zaxiralarning haddan tashqari to'planishi natijasida ularni saqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlarning ortishi muammoli vaziyatlarga olib keladi. Bunday holatlarda:

Birinchidan, tovar-moddiy zaxiralarni shakllantirishda ma'lum miqdordagi kapital investitsiya qilinadi va bu orqali korxonaga aniq hamda yashirin xarajatlarga duch keladi.

Ikkinchidan, omborlardan foydalanish zarurati tug'iladi. Bu esa tayyor mahsulotlar, boshlang'ich xomashyo yoki oraliq mahsulotlar uchun joy ajratish, ularni tashish uchun asbob-uskunalar va texnik vositalardan foydalanish, shuningdek, ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan operatsion xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, zaxiralar to'planishi bilan birga, korxonaga qo'shimcha soliq yukiga va sug'urta badallarining ko'payishiga duch keladi. Bundan tashqari, mahsulotlarni omborlarda uzoq muddat saqlash ularning sifatini ta'minlash va foydali xususiyatlarini saqlab qolish uchun qo'shimcha xarajatlarni talab etadi. Zaxira miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, bu xarajatlar ham shunchalik ortadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ortib borishi ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik marshrutlarning murakkabligiga ham bevosita bog'liqdir. Agar ishlab chiqarish bosqichlari uzoq vaqt talab qilsa yoki ko'p bo'g'inli bo'lsa, zaxiralarni boshqarish tizimi mahsulot miqdori va sifatini nazorat qilish, turli bo'limlar o'rtasida harakatlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, zaxiralarni keyingi yig'ish uchastkalariga yoki qayta ishlash jarayonlariga o'z vaqtida yetkazib berishga yuqori talablar qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, ichki jarayonlarda qo'shimcha murakkabliklar va xarajatlar keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, tovar-moddiy zaxiralarning ortiqcha hajmda bo'lishi korxonaning bozor ehtiyojlaridagi o'zgarishlarga tezkor javob berish imkoniyatini kamaytiradi. Bunday sekinlashuv korxonaning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va yashirin hamda aniq xarajatlarning ortishiga olib keladi.

Nihoyat, zaxiralarning haddan tashqari katta hajmi mahsulotlarning eskirishi yoki iste'molchilar talabidan chiqib ketish xavfini oshiradi. Masalan, dori vositalarining yaroqlilik muddati tugashi bilan ularni ishlatish mumkin bo'lmay qoladi yoki ma'naviy jihatdan eskirgan mahsulotlar endi bozor uchun ahamiyatini yo'qotadi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, asosiy buyurtmachilar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatish orqali ularning rejalashtirilgan xaridlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu esa korxonalarda ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi va ehtiyot (xavfsizlik) zaxiralari hajmini aniqlash imkonini beradi. Buyurtmalarni joylashtirish va ishga tushirish bilan bog'liq xarajatlarni oqilona boshqarish ko'pincha mahsulotning kichik partiyalarini ishlab chiqarishga o'tishni talab etadi. Bu esa tovar-moddiy zaxiralarning kamayishiga olib keladi.

Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida ishlab chiqarish jarayonlarining moslashuvchanligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ularga talab darajasiga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Natijada, ortiqcha zaxiralarni to'plamasdan, mijozlar ehtiyojini qondirishga erishiladi.

Bundan tashqari, mahsulotlarni kichik partiyalarda tez-tez yetkazib berish tejjashning samarali vositasi sifatida baholanadi. Chunki bunday yondashuvda mahsulotlarga to'lov, ularni saqlash va boshqa xizmatlarga sarflanadigan xarajatlar sezilarli darajada kamayadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash uchun tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish bilan bog'liq operatsiyalar xarajatlarini minimal darajada ushlab turish, shu bilan birga ularning amalga oshirilish sifatini saqlab qolish zarur. Bunga erishish uchun korxonalar nafaqat yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, balki yuzaga keladigan ehtiyojlarga tezkor javob bera oladigan ishonchli ta'minotchilar bilan barqaror hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishlari lozim. Bu esa tovar-moddiy zaxiralarni darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Moddiy zaxiralarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqarish faoliyatini o'zgaruvchan talab sharoitida samarali tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishdagi o'zgarishlarni doimiy ravishda monitoring qilish, uskunalar va ularning jihozlariga xarid qilishdan oldin qo'yiladigan texnik va funksional talablarni aniqlash muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, korxonadan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yakuniy narxini pasaytirishga xizmat qiluvchi hamda uni iste'molchi nuqtai nazaridan yanada jozibador qiladigan uskunalarining sozlash xarajatlarini kamaytirish, yuklash-tushirish ishlarini bajarish uchun yuqori unumdorlikka ega uskunalarini xarid qilish, ishlab chiqarish liniyalari o'rtasidagi o'tish yo'laklarini kengaytirish lozim. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan choralarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha moliyaviy resurslarni aniqlash va ularni maqsadli ajratish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар. Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 2003.
2. Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ., Абдиев А.А., Абдукаримов В.А.. Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш.-Т.: Ўқитувчи. 1989 й.
3. Ақромов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003.-223 б.
4. Базылев Н.И., Базылева М.Н. Экономическая теория. Минск: Современная школа, 2008. 640 с.
5. Волжин И.О., Эргашбоев В.В.. Молиявий таҳлил.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.
6. Иброҳимов А. Т. Ваҳобов А. В. Молиявий таҳлил– “Шарқ” нашриёт, Т.:2002. – 224 б.
7. Лытнева Н.А., Малявкина Л.И., Федорова Т.В. Бухгалтерский учет. - 2-е изд. М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2013. 512 с.
8. [Макконнелл К.Р., Брю С.Л.](#), Флинн Ш.М. [Экономикс: принципы, проблемы и политика](#): Учебник: Пер. с англ. 21-е изд.. — М.: [Инфра-М](#), 2019. — 1152 с. — ISBN 978-5-16-012985-3.
9. Ортиқов А. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). — Т.: ТДИУ, 2009, 320-б.
10. Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х.. Бошқарув таҳлили.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2005.
11. Шоалимов А.Х., Тожибоева Ш.А.. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: ДИУ, 2011.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
